

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING 2023-YILDA
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IJTIMOY-MA'NAVIY MUHITNI YAXSHILASH BO'YICHA YO'L XARITASI**

t/r	Vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
I. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI			
1.	<p>Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish:</p> <p>1. Hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini o'rganish va tegishli xulosalar tayyorlash, 2. Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini o'rganish va tegishli xulosalar tayyorlash, 3. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish va ularni optimallashtirish</p>	2023-yil mart	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
2.	<p>Universitetda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashning dunyodagi yetakchi OTMlar tomonidan amaliyotga joriy etilgan yangicha tizimini joriy etish:</p> <p>1. Yetakchi OTMlar boshqaruv, o'quv jarayonini yuritish va, baholash tizimlarini o'rganish va tegishli xulosalar tayyorlash, 2. O'quv adabiyotlari yaratish usullari hamda o'qitishning zamonaviy aspektlarini o'z ichiga olgan ta'lim metodologiyalarini o'rganish va tegishli xulosalar tayyorlash, 3. Xulosalar asosida yangi tizimni shakllantirishga takliflar tayyorlash</p>	doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
3.	<p>Universitetda xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish orqali xalqaro darajadagi madaniy-ta'lim muhitini yaratish:</p> <p>1. O'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni joriy etish; 2. Ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish; 3. Universitet professor-o'qituvchilari, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarini xorijiy stajirovka, malaka oshirishga yuborish va tajriba orttirishlarini ta'minlash</p>	doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari

4.	Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga kadrlarni maqsadli tayyorlash uchun o'quv rejalarini takomillashtirish: 1.O'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritish. 2.Innovation va ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish. 3.O'quv jarayoniga tatbiq etilgan ta'limning kredit-modul tizimini takomillashtirib borish	2023-yil may	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
5.	Yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish: 1.O'quv rejalaridagi barcha fanlarni qamrab oluvchi yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr rejasi shakllantirish 2.Talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quv dasturlarida amaliy va interfaol mashg'ulotlarning ulushini oshirish 3.Axborot-resurs markazida elektron o'quv adabiyotlar hajmini oshirish 4. fanlar bo'yicha elektron darsliklar yaratish, taqdimotlarini o'tkazish	2023-yil yanvar 2023-yil may 2023-yil yanvar 2023-yil may	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
6.	Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini takomillashtirish: 1.So'rovnomalar o'tkazish orqali talabalarda tahliliy fikrlash, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalarni jamlash 2. O'quv rejalar va dasturlarida mustaqil ta'lim ulushini oshirish 4.O'quv-uslubiy ta'minotining talabalarning mustaqil ta'lim olishlari ulushi oshirilgan yangi avlodini yaratish va ilmiy-amaliy mazmunini kuchaytirish	2023-yil fevral 2023-yil may 2023-yil iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
7.	Universitet professor-o'qituvchilari bilan tuziladigan bir yillik mehnat shartnomalarida mehnatga haq to'lashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish: 1.Professor-o'qituvchilarining o'quv yili faoliyatini tahlil qilish va baholash 2.Baholash asosida bir yillik mehnat shartnomalarida mehnatga haq to'lashning tabaqalashtirilgan miqdorlarini tavsiya etish	2023-yil yanvar, iyun 2023-yil iyun-avgust	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
8.	Universitetda mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitilishini kengaytirish: 1. O'quv rejalarining majburiy fanlar blokida joylashgan mutaxassislik fanlari katalogini yaratish 2. Yangi o'quv yilida mutaxassislik fanlarini o'qiydigan professor o'qituvchilar ro'yxatini tuzish	2023-yil yanvar 2023-yil iyul 2023-yil	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari

	3. Yangi o'quv yilida mutaxassislik fanlarini o'qiydigan professor o'qituvchilarning S1 sertifikatiga ega bo'lishini ta'minlash 4. Yangi o'quv yilida mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o'qish uchun o'quv uslubiy ta'minotini yaratish	iyun 2023-yil iyun	
9.	Yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish: 1. Biriktirilgan umumta'lim maktablari o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash rejalarini tuzish 2. Aniq taqdimotlar asosida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish 3. Maxsus taqdimotlar, video roliklar va ma'lumotlarni umumta'lim maktablariga taqdim etish 4. Maxsus taqdimotlar, video roliklar va ma'lumotlarni universitet rasmiy saytiga, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallariga yuklash.	2023-yil yanvar 2023-yil yanvar -iyun 2023-yil yanvar -iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
10.	Ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchi va talabalar orasida "qayta aloqa"ni kuchaytirish, yoshlarning faolligini oshirish asosida uch tomonlama nazorat tizimini yo'lga qo'yish: 1. Tugallangan kurs bo'yicha talabalarning o'z so'rovnomasini yaratish va o'tkazish 2. Natijalarni umumiy muhokamadan o'tkazish hamda fanlar bo'yicha ishchi guruhlarga iqtidorli faol talabalarni jalb qilish	2023-yil yanvar -iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'UB boshlig'i, Ta'lim sifatini nazorati bo'limi
II. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR, YOSHLAR BILAN ISHLASH BA IJTIMOY-MA'NAVIY MUHITNI YAXSHILASH			
11.	Universitetda yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy masalalar va ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash yo'nalishi bo'yicha hozirgi islohatlar davri ruhiga javob beradigan yangi ish rejasini tayyorlash.	2023-yil 9-14 yanvar	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
12.	Talaba-yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash: Yurtimiz tarixi va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan " Ulug'lar izidan ", shahid bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan " Qatag'on qurbonlari xotirasi mangudir ", yurt ozodligi bilan bog'liq " Yagonasan, muqaddas Vatan ", kasbiy etika va nutq odobi ko'nikmalarini tarbiyalashga yo'naltirilgan " Men notiqman ", dunyoga mashhur sharq yozma yodgorliklariga bag'ishlangan " Sharq durdonalari ", Sharq xalqlarining og'zaki ijodiga yo'naltirilgan " Sharq xalqlari folklori ", taniqli ziyolilar, davlat arboblari,	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar

	san'at va sport vakillari bilan “El ardog'ida...” , faxriylari bilan “Xotira uyg'onsa go'zaldir” , soha yetakchilari bilan “Dovruqli sharqshunoslardan saboqlar” , allomalar bilan bog'liq “Yurtim allomalari” , diniy bag'rikenglik yo'nalishida “O'zbekiston – umumiy uyimiz” , badiiy ijod va musiqaga havasmandlarning “Iste'dod sohibi” , muammolar yechimiga qaratilgan “Munozara maydoni” mavzuidagi loyihalar, tanlovlar, festivallar, uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish.		
13.	Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurashish: Universitetda separatizm, millatchilik va shovinistik harakatlar, din niqobidagi ekstremizm, buyuk davlatchilik, “ommaviy madaniyat”, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka qarshi qaratilgan adovatning avj oldirishga sabab bo'ladigan huquqbuzarlik kabi qator ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish bo'yicha turkum ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etib borish. Talabalar turar joylarida “Biz “ommaviy madaniyat”ga qarshimiz” , “Vatanimiz ravnaqi yo'lida xalqimizga kamarbastamiz” , “Diniy bag'rikenglik ota-bobolarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyat” kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar
14.	Adiblar xiyoboni va kitobxonlik targ'iboti “Ogahiy hayoti va ijodi - yoshlar tarbiyasi uchun namuna” yo'nalishi bo'yicha ishlash: Ogahiyxonlik yig'inlari, davra suhbatlari, ilmiy anjumanlarni muntazam tashkil etish. “Ogahiy” nomli hujjatli film taqdimotini tashkil etish. TDSHU qoshidagi Xalqaro Ogahiyshunoslar kengashi faoliyatni takomillashtirish. Ogahiyning hayot va ijod yo'li, asarlari bilan bog'liq ma'lumotlarni qamrab olgan internetda ish boshlagan maxsus http://ogahiy.tsuos.uz/ sayti faoliyatini rivojlantirish. Universitet talablari tomonidan yaratilgan “https://t.me/ogahiiiz Ogahiy izdoshlari” telegram kanali faoliyatini kengaytirish. Adiblar xiyoboni yo'nalishi bo'yicha ta'sis etilgan “Ilhom” mukofoti tanlovida Ogahiy yo'nalishida bajarilgan ishlar natijalari bilan munosib ishtirok etish. OAV va internet nashrlarida Ogahiy merosi bo'yicha maqolalar hamda O'zbekiston telekanallarida ko'rsatuvlar uyushtirish. Ogahiy nomidagi maxsus stipendiya tanlovida talabalar qamrovni oshirish.	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar
15.	Talabalar ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish: Fakultetlarda professor-o'qituvchilar, talabalar shuningdek, talabalarning ota-onalari bilan OTM rektorining	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi,

	<p>“Ochiq muloqot” uchrashuvlarini o‘tkazish (reja-jadval asosida). O‘quv va ta’lim-tarbiya sifati bo‘yicha keng jamoatchilik, ota-onalar va talabalarining fikr va takliflarini muhokama qilishga bag‘ishlangan OTM veb-maydonchasi (forumi)ni yaratish. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga birlashtirilgan mahallalar, maktablar va mehribonlik uyi bilan ishlash</p>		<p>fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar</p>
16.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni keng joriy etish: Talabalar o‘rtasida “Talabalar festivali”, “Yil talabasi”, sharqshunos-talabalarining “Sharq yulduzi” teatr-studiyasi, talabalarining “Sanduvoch” ansambli faoliyati takomillashtirish.</p> <p>Talabalar o‘rtasida sportning futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, yengil atletika va stol tennisi bo‘yicha “Rektor kubogi”, “Sport-salomatlik garovi” shiori ostida yosh o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida sport musobaqalari, fitness, aerobika va sheyping, stol tennisi ommalashtirish, talabalar turar joyida o‘qituvchilar va talabalar ishtirokida fakultetlararo spartakiada o‘tkazish.</p> <p>Talabalar o‘rtasida “Blogerlar”, “Klipmeykerlar” tanlovlari, “PR markaz” virtual klubi, blogerlari o‘rtasida “Sharqdan xabarlar” kanalida chempionat, universitetning “Sharq sadosi” internet radiosi faoliyati rivojlantirish.</p> <p>Fakultetlarda “Book-safe”lar, “Eng faol kitobxon guruh” tanlovi, “Qadrdon mahallamga va maktabimga kitob sovg‘a qilaman” aksiyasi, zakovat bilimdonlar bellashuvi doirasida “Tafakkur sinovlari”, “Kitobxon talaba” ko‘rik tanlovi, “Nur sharqdan” kitobxonlik maxsus telegram kanali, “Kitobingizni o‘qidim” aksiyasi, “Kitobxonlar bellashuvi” ko‘rik-tanlovi, yozma merosga yo‘naltirilgan “G‘azalxon yoshligim” ko‘rik-tanlovi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Mangu bitig” adabiy ustaxonasi faoliyati kengaytirish.</p> <p>Universitet talaba qizlari uchun “Kasb sirlari” mavzusida treninglar, psixolog va Xotin-qizlar tashkiloti hamkorlikda “Quloqqa aytiladigan gaplar” yo‘nalishida suhbatlar, talabalar turar joyida tikuvchilik, pazandachilik, kashtado‘zlik kurslari tashkil etiladi. Universitet psixologi va xotin-qizlar qo‘mitasi hamkorligida yoshlar va talba-qizlarning psixologik muammolariga qaratilgan tadbirlar tashkil etish.</p>	2023-yil davomida	<p>Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar</p>
17.	<p>Talabalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish: Nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarining qiziqishi va intilishini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish. Professor-o‘qituvchilarni</p>	2023-yil davomida	<p>Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat</p>

	ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida universitet kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda tizimli ishlarni tashkil etish.		bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar
18.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini talabalar va professor-o'qituvchilarning keng qatlamlariga yetkazish: Mamlakatning yangi ijobiy ijtimoiy-siyosiy qiyofasini yaratish yo'lidagi harakatlar jarayonidan yoshlar bilan ishlash, tarbiya ishlari, ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha OAV va ijtimoiy tarmoqlarda tizimli ishlarni tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek, oliy Universitet mablag'lari hisobidan ta'lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" mavzuida ma'rifat soatlarini tashkil etish.	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar
19.	Yangi o'quv yilidan talabalikka qabul qilinishi rejalashtirilgan 1-bosqich yangi guruhlariga tyutorlar biriktirish hamda ularning ish rejasi asosida ishlarni tashkil qilish hamda universitetda "Birinchi kurs maktabi" tadbirlarini tashkil etish va talabalikka qabul qilinganlarni OTM tartib-qoidalari bilan to'liq tanishtirish.	2023-yil sentabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar
20.	Talabalar turar joylarida va xususiy xonadonlarda va ijarada yashovchi talabalar bilan ishlash bo'yicha. - xususiy xonadonda va ijarada yashovchi talabalar va ularning yashash manzillari haqidagi elektron bazani yangilab borish; - xususiy xonadon va ijaradagi talabalarning mashg'ulotlarga tayyorgarligi, dam olish sharoitlarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rish; - xususiy xonadonda va ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini nazorat qilish maqsadida mahalla oqsoqoli, dekan, talaba o'rtasida o'zaro aloqani yo'lga qo'yish; - bu boradagi ishlarni tashkil etishda mahalla fuqarolar yig'inlari, uchastka-profilaktika nozirlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar, TTJ direksiyasi va tarbiyachi-pedagoglar
21.	Universitetda ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash borasida "Professor-o'qituvchilar talabalar nigohida" , talabalarning ruhiy olami va ma'naviy	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi

	qiyofasini aniqlashga qaratilgan “ Talaba - mamlakat yoshlari ko‘zgusi ” hamda universitetda korrupsiyaviy holatlarni aniqlash hamda ularni oldini olishga yo‘naltirilgan “ Oliy ta‘lim - korrupsiyasiz soha ” mavzularda ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish.		prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar, tyutorlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
22.	Professor-o‘qituvchilar va talabalarning jipsligini mustahkamlash maqsadida shaharlar, tarixiy obidalar, muzeylarga sayohatlar uyushtirish	2023-yil davomida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, rektor maslahatchisi, fakultet dekanlari
III. XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI SIFATNI OSHIRISH			
23.	Universitet professor-o‘qituvchilari va mutaxassislarining xorijdagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalari, tashkilotlarida malaka oshirish, stajirovkasini tashkil etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni belgilangan muddatlarda amalga oshirish.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari
24.	Hamkorlikdagi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan o‘rnatilgan aloqalarni yanada kengaytirish. Xorijiy universitetlar, tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan ta‘lim forumlari, konferensiya va simpoziumlarda universitet professor-o‘qituvchilari va mutaxassislari ishtirokini ta‘minlash.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari
25.	Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni o‘rnatish, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ ta‘lim dasturi doirasida hamkorlikni kengaytirish.	2023-yil fevral-avgust	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari
26.	Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya, Belarus, Hindiston, Misr, Turkiya, Eron va boshqa davlatlarning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari va xorijiy tashkilotlari bilan hamkorlikda “mahorat darslari”, master klasslar, seminar treninglar o‘tkazish, ma‘ruzalar o‘qish, shuningdek, qo‘shma nashrlar tayyorlash maqsadida ta‘lim va ilmfan almashinuvlarini amalga oshirish.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari
27.	Universitetga taklif etiladigan chet ellik professor-o‘qituvchilar, olimlar va mutaxassislarga universitet buyurtmalariga binoan kirish vizalarining berilishi va uzaytirilishi, O‘zbekiston Respublikasidagi vaqtincha yashash joyida ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlash.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i
28.	2023-2024 o‘quv yilida TDSHUda tahsil olish istagini bildirgan xorijiy talabalar va stajyorlarni o‘qishga qabul qilish hamda ularning salmog‘ini yanada oshirish.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, o‘quv ishlari bo‘yicha

			prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, fakultet dekanlari
29.	Universitet talabalarini xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan almashinuv dasturi doirasida xorijiy oliy ta'lim muassasalariga yuborish hamda xorijda tashkil etiladigan simpozium va konferensiyalarda ishtirokini ta'minlash.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, fakultet dekanlari
30.	TDSHUda koreys tilining o'qitilishini va bu borada yanada rivojlantirish hamda talabalar qamrovini kengaytirish maqsadida "Koreya tadqiqotlari o'quv-ilmiy markazi" ni tashkil etish.	2023-yil II yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, O'quv ishlar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, ilmiy tadqiqot markazlari
31.	TDSHU va Qohira universiteti, Ayn Shams universiteti va Al-Azhar universitetlari bilan hamkorlikni tiklash (hamkorlik shartnomalarini yangilash), shuningdek, Manufiya universiteti va Iskandariya universitetlari bilan hamkorlik aloqalarni o'rnatish. Ular bilan anglashuv memorandumlarni imzolash.	2023-yil I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i
32.	Saudiya Arabistoni Podshohligining Qirol Abdulaziz universiteti, "Rasana" eronshunoslik ilmiy tadqiqot markazi hamda arab tilini o'qitish markazlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.	2023-yil I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, O'quv ishlar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, ilmiy tadqiqot markazlari
33.	Universitetga fakultetlar hamkorligida xorijiy mamlakatlarning fondlari, xalqaro tashkilotlar va elchixonalarning dasturlarida ishtirok etish orqali xorijiy investitsiya va grant mablag'larini jalb etish.	Yil davomida	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i
34.	QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reyting agentligining QS World University Ranking 2023 , Asia World University Ranking 2023 hamda Times Higher Education World University Ranking 2023 yo'nalishlariga ma'lumotlar tayyorlash va portalga kiritish	2023- yil yanvar-mart	Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi, fakultetlar dekanlari, bo'limlar boshliqlari, kafedralar mudirlari
35.	"Academic reputation", "Employer reputation" uchun respondentlarni to'plash uchun fakultet va kafedralarga e'lon berish, ma'lumotlarni jadval ko'rinishlarida to'ldirish	2023-yil yanvar	Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
36.	Universitet xalqaro reyting ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi parametrlarni doimiy nazorat qilish va ularning holati bo'yicha universitet rahbariyatiga ma'lumot berish	Doimiy	Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi

37.	Fakultetlar, kafedralar va bo'limlarning xodimlarini xalqaro reyting tizimining yangilanib borayotgan talablari bilan tanishtirib borish hamda ularga metodik ko'rsatmalar berish masalalari yuzasidan seminar-treninglar o'tkazish	Doimiy	Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi
38.	THE xalqaro reyting agentligining Impact Ranking 2024 yo'nalishiga ma'lumotlar tayyorlash va portalga kiritish	2023-yil sentabr-noyabr	Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi, prorektorlar, fakultetlar dekanlari, bo'limlar boshliqlari, kafedralar mudirlari
IV. ILMYI-TADQIQOT VA INNOVATSIYA ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SIFATNI OSHIRISH			
39.	Ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani ta'minlash bo'yicha vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish choralarni ko'rish.	noyabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari
40.	Universitet olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini dunyo miqyosida namoyon etish, O'zbekiston olimlarini dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan tan olinishini ta'minlash maqsadida Scopus, Science Direct, Web of Science kabi xalqaro jurnallarda chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini oshirish.	II yarim yillik	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, ITIPKT bo'limi, kafedralar mudirlari
41.	Universitetning ustuvor yo'nalishlari doirasida kafedralar yo'nalishlarini tahlil qilish, istiqbolli ilmiy tadqiqot mavzularini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash.	sentabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari. Ilmiy markazlar va ITIPKTB
42.	Kafedralar kesimida doktorlik (PhD, DSc) va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bazasini jahon ilm-fani taraqqiyotiga hamda sharqshunoslik sohalariga qo'yilayotgan talablarga muvofiq ko'rib chiqish va tasdiqlash.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
43.	Ilmiy maktablar faoliyatini kuchaytirish, har bir ilmiy darajaga ega bo'lmagan o'qituvchini universitetning yetakchi professorlari va dotsentlariga birlashtirish va kafedralarda ular bilan olib borilayotgan ishlarning holatini muhokama qilib borish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
44.	Tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshirish va "Yosh olimlar kengashi" faoliyatida magistrantlar ishtirokini kengaytirish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
45.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-sonli Qarori ijrosi bo'yicha ko'rsatkichlarni amalga oshirish.	yil davomida	Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
46.	Doktorantura va mustaqil izlanuvchilik universitetiga tanlov asosida qabul qilingan doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning faoliyati monitoringini kuchaytirish, reja ijrosi uchun sharoitlarni kengaytirish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
47.	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bo'yicha 2023-yilga ajratiladigan kvotalar bo'yicha qabulni tashkil etish.	2022-yil sentabr-noyabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

48.	Amalga oshirilayotgan doktorlik dissertatsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan monitoring tashkil etish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
49.	Tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun mutaxassislik fanlaridan tegishli tartibda malakaviy imtihonlarni tashkil etish va hisobotlarini yuritish.	sentabr-dekabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ITIPKT bo'limi, Ilmiy kengash kotibi
50.	Kafedralarda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bajarilishining monitoringini olib borish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, loyihalar rahbarlari
51.	Tadqiqotchilarning yoshlar fundamental, amaliy va innovatsion loyihalaridagi ishtirokini kengaytirish: - yosh tadqiqotchilarning ustuvor yo'nalishlar doirasida yangi loyihalar yaratishga o'rgatish yuzasidan treninglar tashkil qilish; - innovatsion loyihalar yaratish uchun hamkor tashkilotlar bilan ishlashga o'rgatish yuzasidan maslahatlar uyushtirish.	2022-yil oktabr-noyabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, loyihalar rahbarlari
52.	Loyihalar natijalari asosida respublika ommaviy axborot vositalarida doimiy tahliliy materiallar e'lon qilish: - aprobatsiyadan o'tkazish maqsadida ilmiy jurnal va gazetalarda maqolalar chop etish; - olimlarning yangi tadqiqotlari haqida TVda intervyular tashkil etish.	2022-yil oktabr-dekabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, loyihalar rahbarlari
53.	Professor-o'qituvchilarning o'z yo'nalishlari bo'yicha jahon ilmiy tajribalari bilan tanishishlari va xalqaro ilmiy resurslar bazalari (SCOPUS, Web of Science, kabi) o'z tadqiqotlarida samarali foydalanishlari uchun nufuzli resurslar bazasiga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ulardan samarali foydalanishlariga erishish, seminarlar o'tkazish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, til kafedralari mudirlari, tadqiqotchilar
54.	Yosh tadqiqotchilarning "Yosh sharqshunoslar forumi (Sh.Shomuhamedov xotirasiga bag'ishlanadi)" ni o'tkazish va ilmiy to'plamini chop etish.	May oyida	Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, Nashriyot-tahririyat bo'limi
55.	Ilmiy-tadqiqot loyihalari natijasida tayyorlangan monografiya va risolalar, ilmiy anjumanlarning materiallari to'plamlari nashrlarini amalga oshirish va muhokamalarini uyushtirish.	yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, loyihalar rahbarlari, Nashriyot-tahririyat bo'limi
56.	Kafedralarning hamkor tashkilotlar bilan birgalikda mavzular asosida nashrlar tayyorlashlarini kengaytirish, bu jarayonga iqtidorli talabalar va magistrantlarni ham	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedralar

	jalb etish. Jumladan, sharq tillari va sharq mamlakatlari bilan bog'liq fanlar yuzasidan akademik litseylarga o'quv-uslubiy ta'minotni yaxshilashda ishtirok etish, darslik va o'quv qo'llanma, risolalar yaratish.		mudirlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
57.	Iqtidorli talabalarni bakalavrluk bosqichidanoq ilmiy faoliyatga yo'naltirishni tizimli tashkil etgan holda magistratura va doktorantura bosqichida faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan yosh kadrlar bazasini shakllantirish.	o'quv yili boshlanishida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalar markazi
58.	Universitet reytingini oshirish maqsadida iqtidorli talabalarning respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli tanlovlardagi ishtirokini ta'minlash va g'oliblikni qo'lga kiritishlari uchun ularni muntazam tayyorlash.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalar markazi
59.	Talabalar ilmiy jamiyatlari, ilmiy to'garaklar faoliyatini takomillashtirish, ayniqsa, magistratura talabalarini maqsadli yo'naltirilgan holda ilmiy jamiyatlarga yo'naltirish ishlarini chuqurlashtirish maqsadida: - ilmiy izlanishlarini muhokama qilib borish. - OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish - ilmiy to'garak mahorat darslariga Sharqshunoslik sohasining yetuk mutaxassislarini jalb etish - hamkor tashkilotlarda belgilangan rejaga muvofiq sayyor holda tashkil etish - xorijiy hamkor universitetlar talabalarini bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish - xorijlik professorlar ishtirokida qisqa va uzoq muddatli onlin seminar va vebinarlar tashkil etish	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
60.	Iqtidorli yoshlarning ilmiy faoliyati natijaarini namoyish etish va aprotatsiyadan o'tkazish, ularni ma'naviy rag'batlantirish maqsadida "Kamolot sari" ilmiy to'plamini muntazam chop ettirish.	2022-yil dekabr	Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
61.	Xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda, ilmiy nazariy seminarlarda iqtidorli yoshlarning ishtirokini kengaytirish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
62.	Xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalar vakillari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, ilmiy yo'nalishda hamkorlikni kengaytirish choralarini ko'rish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor
63.	Xorijiy hamkorlar tomonidan stajirovka o'tash, malaka oshirish, o'quv kurslarida qatnashish va doktoranturada tahsil olish uchun e'lon qilinadigan grantlar tanloviga tadqiqotchilarni tavsiya etish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

64.	Nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni tashkil etish (ilmiy loyihalar; ilmiy konferensiyalar).	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, IIPKT bo'limi, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari, XAB
65.	TDSHU huruzidagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash (uning qoshidagi ilmiy seminar)lar faoliyatini kengaytirish, ajratilgan ixtisosliklar bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyalari tasdiqlangan Nizomlar asosida bo'lishini ta'minlash.	doimiy	Ilmiy kengash raisi, ilmiy kotibi, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
66.	Doktorantura va mustaqil izlanuvchilik universitetiga tanlov asosida qabul qilingan doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning faoliyati monitoringini kuchaytirish, reja ijrosi uchun sharoitlarni kengaytirish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
67.	Universitetda nashr etiladigan, "Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies" ilmiy-nazariy, "Sharq mash'ali" ilmiy-uslubiy hamda "XXI asr fan va ta'lim masalalari", "Turkologiya" jurnallari faoliyatini takomillashtirish: - maqolalarning ilmiy saviyasini yanada yuqori bo'lishini ta'minlash; - jurnallarni onlayn nashr etish orqali maqolalarni xalqaro ilmiy bazalarda indekslanishiga erishish (onlayn nashr uchun ISSN va maqolalar uchun DOI raqamlarini joriy etish) - jurnallarda xorijiy mutaxassislarning ham ilmiy maqolalarini chop ettirib borish; - jurnallar sayti takomillashtirib boorish, o'quvchilarni jalb etish choralari ko'rish; - jurnallarni xalqaro miqyosga olib chiqish	har chorakda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Tahrir kengashlari, Nashriyot-tahririyat bo'limi
68.	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida iqtidorli yoshlarning ishtirokini ta'minlash, ijodiy g'oya va ishlanmalari va Startup loyihalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Universitetda kichik ilmiy tadqiqot-loyihalarini o'tkazish bo'yicha tanlov o'tkazish	yil davomida	Ilmiy va o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
69.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Navoiy nomidagi Davlat stipendiyalariga nomzodlarni tizimli tayyorlash va birinchi bosqichini o'tkazish. "Ogahiy", "Suyima G'aniyeva", "Rektor" stipendiaylariga tanlovlar o'tkazish munosib nomzodlarni rag'batlantirish.	yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi
70.	Universitet reytingini oshirish maqsadida iqtidorli talabalarning respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli tanlovlardagi ishtirokini ta'minlash va g'oliblikni qo'lga kiritishlari uchun ularni muntazam tayyorlash.	yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'limi

71.	Universitetda faoliyat yuritayotgan ilmiy markazlar faoliyatini reja asosida tashkil etish va monitoringini yuritish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy markazlar rahbarlari
72.	Kafedralarda ilmiy maktablar faoliyatini kuchaytirish va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish maqsadida xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy markazlar rahbarlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari

TDSHU rektor



G.Rixsiyeva